

PEDAGOGIK MULOQOT USLUBLARINI TANLASHDA O'QITUVCHINING MAHORATI

Xalilova Shaxlo Ravshanovna

Osiyo Xalqaro Universiteti

*Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi*

**Annotasiya:** *Pedagogik muloqot uslublari to'g'ri tanlash o'qituvchining mahoratiga bevosita bog'liq. Maqolada zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirish uchun pedagogik muloqot uslublari tanlashda o'qituvchi mahorati nimalarda aks etishibu orqali ta'lim tizimidagi bir qator muammolarning oldini olish mumkinligi ifodalangan.*

*Правильный выбор методов педагогического общения напрямую зависит от навыков педагога. В статье показано, как умения учителя отражаются в выборе методов педагогического общения для совершенствования современной системы образования и как можно предотвратить ряд проблем в системе образования.*

**Kirish:** Dunyo «oliy ta'lim taraqqiyotida internasionallashuv, globallashuv va axborotlashtirish tendensiyalarining kuchayib borishi» o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish maqsadida samarali muloqotga tayyorlash, muloqot uslublari o'rinli foydalanish hamda ularning dunyoqarashini takomillashtirishning pedagogik mexanizmlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mustaqilligimizning dastlabgi yillaridanoq oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim sistemasini jahon andozalariga mos ravishda kadrlar tayyorlash, ularni yuksak madaniyatli, o'qitish uslublari mukammal yegallagan mutaxassislar qilib tayyorlash vazifalari turadi. Taraqqiyot yo'lidan borayotgan yurtimiz yoshlarini yangicha ijtimoiy muhitga tayyorlash, ajdodlariga munosib avlod bo'lib kamol toptirish, hozirgi zamon talabiga muvofiq tarbiyalash - bugungi kunda dolzarb va ustuvor ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning taqdiri, yoshlarning ma'naviy qiyofasi, shaxsiy barkamolligi bugungi kunda pedagog kadrlarning vazifasini yanada orttiradi. Yurtboshimizning “Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq”, - degan fikrlari bejiz yemas. Bu vazifalarni amalga oshirish pedagog kadrlarning o'zaro munosabatlarga kirishuvchanligini, muloqotchanglik qobiliyatini oshirishni taqozo etadi. Pedagog kadrlar va o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar milliy pedagogik tizimida o'ziga xos va har bir millat ruhiyatiga mos holda shakllantirishdir. Pedagogik mahoratga yega kadrlar oldiga talaba – muloqot uslubini to'g'ri tanlash, yoshlarni ma'naviy dunyosini boyitish, ularning ongiga milliy g'oya asoslarini singdirish, vatanparvarlik hissini tarbiyalash, o'tmish va buyuk kelajak haqida fikrlash, u bilan faxrlanish hissini, yangicha tafakkurni shakllantirish, bozor iqtisodiyotiga mos keladigan muloqot

madaniyatini o'zlashtirishni ta'minlash kabi maqsadlar qo'yiladi. Pedagoglar ma'nan yetuk, intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-ahloqiy madaniyati bilan barchaga o'rnak bo'la olishi, muloqot uslubini to'g'ri tanlash orqali pedagogik mahorat qirraldarini namoyon eta olishi zarur. Mahoratli o'qituvchi sifatida malakali kadrlarni tarbiyalash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

**Asosiy qism:** Mahoratli pedagoglar o'qituvchi va o'quvchi jamoasining o'zaro ta'sir malakasi, usuli va tizimini anglatib uning mohiyati, o'zaro axborot almashishida, ta'lim tarbiyaviy ta'sir o'tkazishida, o'zaro bir birlarini tushunishga erishishlarida namoyon bo'ladi. Jamiyatning yangilanish davrida pedagoglarning muloqot uslublarini rivojlantirishda ro'y berayotgan o'zgarishlarning pedagogik mahoratini ochib berish lozim. Dastavval muloqot, pedagogik muloqot va pedagogik mahorat atamalariga aniqlik kiritib olishimiz zarur. Muloqot yunoncha so'z bo'lib, suhbatlashuv, shaxslararo suhbat va o'zarofikr almashuv ma'nosini bildiradi hamda ikki va undan ortiq kishilarning so'zlashuvida paydo bo'ladi. Pedagogik muloqot –bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda o'zi uchun qulay bo'lgan psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratishi uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatdir. Shu o'rinda "pedagogik mahorat" tushunchasiga aniqlik kiritadigan bo'lsak pedagogik ensiklopediyada tarif quyidagicha izoxlangan: "Pedagogik mahorat – O'z kasbining mohir ustasi ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z kasbini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal yegallagan mutaxassis". Pedagogik mahorat o'qituvchining oliy ta'lim muassasasida faoliyat olib borish jarayonida rivojlanib, shakllanib boradi. Malakali, keng fikrlovchi kadrlar malakasini oshirish, o'z ustida ishlash, takomillashib borishi jarayonida o'sib borishiga zamin bo'ladi. Ilmiy-nazariy bilimlarni yegallash va o'z ustida ishlash, pedagogik muhitda doimiy faoliyat olib borish va pedagog kadrlar bilan o'zaro fikr almashish o'qituvchi pedagogik mahoratini oshirishda yordam beradi. A'zam Xoliqovning "Pedagogik mahorat" risolasida yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati deya tarflanadi. (21 bet) Pedagogik mahoratga ega mutaxassislar bo'lish uchun bir necha yillik ish stajiga yega bo'lib kasbiy takomillashib borishi lozim. Ajdodlar merosi, O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlar ilmiy ijodini chuqur o'rganish bilan, xalqaro standartlar talablariga javob bera oladigan, chet tillarida so'zlasha oladigan va raqobatbardosh kadrlar qatorida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan xabardor bo'ladi. Mahoratli pedagoglarning muhim jihatlaridan biri o'quvchilar bilan do'stona kirisha olishi, ta'lim-tarbiya jarayonini hamkorlikda tashkil qilib, qizg'in muloqotga kirisha olishidir. Sermahsul muloqot uslubini tanlashda ham pedagogik mahoratidan telib chiqqan holda tanlaydi. O'quvchilar jamoasida darslarni samarali tashkil etish uchun ularni rag'batlantiruvchi, bilim olish faoliyatiga turtki bo'ladigan zamonaviy usullardan foydalanadi. Qachonki o'qituvchilar o'z kasbini sevsa,

kasbiga nisbatan vijdonan yondashsa pedagogik qizg'in muloqotga kirishish qobiliyati rivojlanib, layoqati oshib boradi.

Pedagogik faoliyatda muloqot o'quvchilarga zamon talablari asosida ta'lim berish vazifalarini hal qilish vositasi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy

Insoniyat hayot tarzining muhim tarkibiy qismi hisoblangan muloqot jarayoni pedagogik faoliyatda bir necha turlarga bo'linadi.

Alisher Navoiy "Voiz olimning o'zi avvalo haiol ish ko'ruvchi bo'lishini, uning nasihatidan chiqmaslikni" o'z asarlarida bayon etgan. Shuning uchun til shirinligi va notiqlik san'ati ustida ishlash, nutq madaniyatini takomillashtirib borish har bir o'qituvchining eng asosiy ijtimoiy burchi va mas'uliyati hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida nutqning ta'sir kuchi nihoyatda beqivosdir. O'qituvchining tili, nutqiy qobiliyati o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, xulq-atvori va fikr yuritishlariga ulkan ta'sir etuvchi kuchli vositalardir. O'qituvchining "til boyligi va notiqlik san'ati barcha zamonlarda yonma-yon yashab kelgan" (A.P.Chexov). Uning his-tuyg'usi, intilishlari, iroda va e'tiqodi nutqida aks etadi. O'qituvchi til boyligi bilan o'quvchilarda xursandchilik, ruhlanish, muhabbat, Vatanga sadoqat, g'azablanish, nafratlanish hissiyotlarini uyg'otadi, bilim olishga undaydi. Shuning uchun o'qituvchi "tilning xalq o'tmishi, hozirgi va kelajak avlodni buyuk bir yaxlitlikka, tarixiy, jonli bir jipslikka aylantiruvchi eng hayotiy, eng boy va eng mustahkam vosita" (K.D. Ushinskiy) ekanligini unutmasligi kerak. Kishilarning bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarida shirin-suxanlik, go'zallik, so'zlashuv ohangidagi muloyimlik muosharat odobi deyiladi. Muosharat odobi insonning go'dakligida ota-ona bag'rida, oilada shakllantirilishi kerak. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deyiladi xalq maqollarida. Oilada o'rganilgan muosharat odobining poydevori mustahkam bo'ladi. Bola maktabda, ulg'avgach esa, ijtimoiy muhitda ko'nikma hosil qilish jarayonida oilasida o'rganilgan muosharat odobining kuch-qudratini doimo his qiladi. O'quvchilarda muosharat odobini shakllantirish uchun o'qituvchining o'zi avvalo xushmuomalaligini namoyish etib, o'quvchilar qalbiga yo'l topa olishi, mehribonligi, ular bilan hamdard, hamfikir bo'lib, o'mak bo'lishi muhim ahamiyatga ega Sharq mutafakkirlari asarlarida muosharat odobi turli ko'rinish va nomlarda bayon etiladi. Jumladan, Al Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida asosiy g'oya - fozil kishilar obrazi. U kim bo'lishidan qat'iy nazar shohmi, gadomi, oddiy fuqaromi fozil kishidir. Shahaming fozil kishilari bir-birlariga nisbatan hurmat va izzatda bo'ladilar. Ota-ona va farzand, ustoz va shogird, do'stlar, qarindoshlar o'rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtirom mavjud. Forobiy asarida bundan bir necha asr ilgari ham ota-bobolarimizning ma'naviyati naqadar yuksak bo'lganligi va bu avlodlarga o'mak bo'lishi ta'kidlanadi. Onore de Balzak "Xushmuomalalik va kamtarlik kishining chinakam ma'rifatli ekanligidan dalolat beradi" deydi.

O'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida yuz berishi mun kin bo'lgan turli ziddiyatli vaziyatlarni tezda bartaraf etishi uchun, awal o'z iqtidoriga, pedagogik mahoratiga tayanishi kerak. Pedagogik muloqot asosida erishiladigan yutuqlar

o'qituvchining ijodiy mehnati mahsulidi Ushbu mehnatning salbiy va ijobiy tomonlari bo'lishi shubhasiz. Har b vaziyatni oqilona baholash, uni to'g'ri rejalashtirish, tarbiyaviy jars yonlarda aql-idrok bilan muloqotni tashkil etish zarur. O'qituvchi bilan o'quvchilarning muloqotda bir-birlarini o'zaro ti shunmasliklari, muloqot vositalarining qashshoqligi, har bir o'quvchinin ruhiyatiga qarab muomala qilinmasligi, barchaga bir xil majburiy itoa korlik munosabati, o'quvchilarni tor doiradagi intizomga chaqiruvcl emotsional jihatdan salbiy tus berilgan buyruq shaklidagi muloqot do miy ziddiyatlaml keltirib chiqaradi. Pedagogik muloqot usullari ustic ishlashning asoslangan tizimini tuzish uchun, har bir o'qituvchi o'zinin muammolaridan, yo'l qo'yilgan kamchiliklaridan kelib chiqib, qiyinch liklami tahlil qilish bilan bartaraf etishi lozim. Pedagogik muloqotga doir barcha mashqlaming umumiy yo'ns lishini mavjud pedagogik vaziyatlarda malaka hosil qilish uchun, har bir muloqot ishtirokchilarining imkoniyatlarini ochishga ko'maklashuvchi uning shaxsiy hislatlarini rivojlantirib borishni ta'minlovchi vositalarda foydalanish taklif qilinadi. Muloqotga ba'zi o'quvchilarning subyekti qarashlarini aniqlash, shu o'quvchi bilan muloqotni oqilona hal qilinis uchun zarur bo'lgan vazifalarni belgilash, uning xulqini tuzatish yol unda shunchaki ishonch kayfiyatini yaratish kerak.

**Muhokamalar va natijalar:** Ko'pincha yosh pedagoglar, talabalar har doim o'qituvchiga o'z diqqatlarini qaratishlari lozim deb hisoblaydilar va o'zaro fikr almashishga doir bu muhim vazifalarni sobit qadamlik bilan hal qilmaydilar.

Ko'rsatib o'tilgan bevosita muomala bosqichlari pedagogik ta'sir ko'rsatishning nisbatan mustaqil, har bir ko'rinishida vaqti-vaqti bilan takrorlanib turadi, tarbiyaviy jarayonni tashkil etganda ularni nazarda tutish kerak bo'ladi.

Muloqot jarayonida pedadogga qo'yiladigan talablardan: Tarbiyachi jamoa, guruh va individual ish olib borish jarayonida odamlar bilan muomala qila bilishi, uni talabalar bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda tashkil eta olishi va ularni boshqara bilishi lozim. Kasb-korga oid pedagogik dilkashlikning yosh o'qituvchi amal qiladigan quyidagi mezonlarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin: talabalar bilan turli sohalarda muntazam muomala qilishda barqaror ehtiyojning mavjudligi, muomalaning barcha bosqichlarida hissiy osoyishtalikning namoyon bo'lishi, o'zaro fikr almashishga doir sifatlar, ko'nikmalar va malakalarning mavjudligidir. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maqolada jahon pedagogikasining klassik muloqot uslublari, ularga buyuk pedagoglar tomonidan berilgan ta'riflar, zamonaviy pedagoglarning qarashlari bilan bir qatorda, sharqona muloqot uslublarining o'ziga xosligi ko'rsatildi. Qadimgi didaktik qarashlardan bugungi ta'lim jarayoning zamonaviy pedagogik jihatlari o'rin oldi. Jahon pedagogikasida zamonaviy pedagogik muloqot uslublari va uning milliy pedagogik muloqot uslublariga transformatsiyasi va rivojlanish istiqbollari ko'rsatildi. Zamonaviy pedagogik muloqot uslublarining bugungi ta'lim tizimidagi ahamiyati atroflicha yoritib berildi.

**Xulosa:** Muloqot uslublarini rivojlantirish texnologiyalari ustida bir necha asrlar davomida izlanishlar olib borilmoqda. Jahon pedagogikasida zamonaviy pedagogik muloqot uslublari va uning milliy pedagogik muloqot uslublariga transformatsiyasi va rivojlanish istiqbollari o'rganish zamonaviy pedagogik kadrlar faoliyatida kelib chiqadigan muammolarni bartaraf etishga yordam beradi. Pedagogik faoliyatda muloqot uslublaridan to'g'ri foydalangan holda pedagog kadrlar orasida munosabatga kirishishi osonlashtirish mumkin. Har qanday vaziyatda ham shirin so'zlik insonning mudroq hayolotini yoritadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ravshanovna, X. S. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI. *Journal of Universal Science Research*, 1(8), 131-139.
2. Ravshanovna, X. S. (2023). PEDAGOGIK MULOQOT O'QUV JARAYONI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI. *Journal of Universal Science Research*, 1(8), 131-139.
3. Khalilova, S. (2022). PHILOSOPHICAL ASPECTS OF GLOBALIZATION. *Gospodarka i Innowacje.*, 28, 6-11.
4. Ravshanovna, X. S. (2023). Bo 'lajak o'qituvchi pedagogik muloqot usullarini rivojlantirish texnologiyasining zamonaviy modellari va ularni qo 'llash metodlari. *Journal of Universal Science Research*, 1(9), 223-234.
5. XALILOVA, S. (2021). JAHON PEDAGOGIKASIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK MULOQOT VA MILLIY PEDAGOGIK MULOQOT USLUBLARIGA TRANSFORMATSIIYASI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
6. Ravshanovna, K. S. (2023). Factors Affecting the Formation of a Positive Attitude to the Learning Activity in Students. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 116-122.
7. Ravshanovna, X. S. (2023). Globallashuv sharoitida o 'quvchilar aqliy-ruhiy qiyofasini shakllantirishda muloqot uslublarining ahamiyati. *TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN*, 1(5), 100-106.
8. Ravshvnovna, K. S. (2023). THE ROLE OF THE CULTURE OF COMMUNICATION IN MODERN EDUCATION AND EDUCATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(3), 356-361.
9. Ravshanovna, X. S. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILAR VA O'QUVCHILAR O 'RTASIDAGI MULOQOT JARAYONI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR. *Лучший инноватор в области науки*, 1(1), 814-819.
10. Ravshanovna, X. S. (2023). O'qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik muloqot usullarining o'zlashtirish jarayoniga ta'siri va ahamiyati. *Journal of Universal Science Research*, 1(10), 803-816.

11. Mustafoyev K., & Muxamedjanov , . M. (2022). ZANJIRSIMON BAXYAQATORLI YO`RMAV TIKISH MASHINALARIDAGI CHALISHTIRGICH MEKANIZMLARI. Евразийский журнал академических исследований, 2(11), 398–402.
12. 15. Mustafoyev Komiljon Ilxom o'g'li. (2023). New Construction of the Looper Mechanism. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 255–257. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/AJPDIS/article/view/1488>
13. Mustafoyev , K. . (2023). LOOPER MECHANISM OF THE SEWING MACHINE. Евразийский журнал академических исследований, 3(4), 16–18. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/11848>
14. Ilxom o'g'li, M. K. (2023). IMPROVEMENT OF THE LOOPER MECHANISM OF THE SEWING MACHINES. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).
15. Xalilova Shaxlo Ravshanovna. (2024). The teacher's views on the technologies for the development of pedagogical communication methods. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(2), 368–376.
16. Hikmatovna, M. N. (2024). Teaching of specialized subjects in primary education. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 453-460.
17. Hikmatovna, M. N. (2024). Boshlang'ich ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 445-452.
18. Махмудова Нигора Хикматовна. (2024). Преподавание профильных предметов в начальной школе . *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(2), 436–444.
19. Sobirovna, S. Y. (2023). Creativity in the work of an educator. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 1(10), 361-367.
20. Sidiqova Yulduz. (2024). SYUJETLI-ROLI O`YINLARNING BOLA FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 2(1), 44–51.
21. Tojiddinovna, I. F. A. (2024). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА “ІLK QADAM” DASTURI. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 603-608.
22. Tajiddinovna, I. F. A. (2024). FIRST STEP PROGRAM IN PRESCHOOL EDUCATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 609-614.
23. Tajiddinovna, I. F. A. (2024). THE ISSUE OF EDUCATION IN PRIMARY EDUCATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 615-620.

24. O'ktamovna, S. M. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA TABIAT BURCHAGINI TAYYORLASH. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 661-667.
25. O'ktamovna, S. M. (2024). EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN PRIMARY GRADES. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 654-660.
26. O'ktamovna, S. M. (2024). PREPARATION OF THE NATURE CORNER IN PRESCHOOL EDUCATION. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 675-681.
27. Ситора Икромова Акбаровна. (2024). РАЗВИТИЕ СОЗНАНИЯ И ОБУЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ ПОНЯТИЯМ БЕССОЗНАТЕЛЬНОГО. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 157–163.
28. Ro'ziyeva, M. Y., & Azamova, N. U. B. (2024). BADIY ADABIYOTDA MAKON VA ZAMON TUSHUNCHASI VAULARNING KELIB CHIQISHI. *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 2(2), 22-26.
29. Bahrievna, P. N., & Ro'ziyeva, M. Y. (2023). Reforms and Innovations in the Educational System in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(6), 47-51.
30. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING METODOLOGIK VA ILMIY ASOSLARI.
31. Hojiyeva, N. (2023). METHODS OF TEACHING MOTHER TONGUE IN PRIMARY CLASSES SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASIS. *Modern Science and Research*, 2(9), 424-428.
32. Bahodirovna, H. N. (2023). TA'LIM JARAYONIDA BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANINI O 'QITISH MUAMMOSINING YORITILISH MAZMUNI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 209-209.
33. Hojiyeva, N. B. (2023). MODERN METHOD IN TEACHING MOTHER LANGUAGE LESSONS-USING THE CACOGRAPHY METHOD. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 434-439.
34. Hojiyeva, N. B. (2023). INCREASING THE INTEREST OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TEACHING TECHNOLOGY IN
35. PRIMARY GRADES. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 430-433.
36. Bahodirovna, H. N. (2023). Methodological Principles of Teaching The Science of" Education" In Primary Classes. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 366-368.
37. Bahodirovna, H. N. (2023). Methodological Foundations of Teaching the Science of" Education" in Primary Grades. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 369-372.

38. Bahodirovna, H. N. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI O'QITISH METODIKASI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI.
39. Hojiyeva, N. (2023). THE SUBJECT AND TASKS OF THE METHOD OF TEACHING THE MOTHER TONGUE IN PRIMARY GRADES. *Modern Science and Research*, 2(10), 855-857.
40. Narziyeva, S. (2023). PSYCHOLOGICAL VIEWS ON THE CHOICE OF PROFESSION. *Modern Science and Research*, 2(10), 333-336.
41. Rustamovna, N. S. (2023). UNDERSTANDING EMPATHY: AN ESSENTIAL COMPONENT OF HUMAN CONNECTION. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 378-382.
42. Rustamovna, N. S. (2023). DEVELOPING EMPATHY IN STUDENTS. *Oriental Journal of Academic and Multidisciplinary Research*, 1(3), 127-131.
43. Akbarovna, I. S. (2024, April). BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI MASHG 'ULOTLAR. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 4, pp. 27-32).
44. Akbarovna, I. S. (2024, April). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIM MASALASI. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 2, No. 4, pp. 21-26).